

MINTAQALARNI IJTIMOIY – IQTISODIY RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH TIZMINI TRANSFORMATSIYASI

i.f.d., prof. **Qodirov Abdurashid**
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va
muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0009-7186-3309

Annotatsiya. Maqolada mintaqalarni ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish tizmini transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan hamda hududlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko'rilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa, ijtimoiy, iqtisodiy, rivojlanish, davlat, tartibga solish, tizim, transformatsiya, xususiyat, mintaqaviy siyosat, strategiya.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ

д.э.н., проф. **Кадыров Абдурашид**
Научно-исследовательского центра
"Научные основы и проблемы развития
экономики Узбекистана" при ТГЭУ

Аннотация. В статье проанализированы процессы трансформации государственного регулирование социально-экономического развития регионов, а также рассмотрены вопросы расширение полномочий территорий при принятии управленческих решений.

Ключевые слова: регион, социальный, экономический, развития, государство, регулирование, система, трансформация, особенность, региональная политика, стратегия.

TRANSFORMATION OF THE SYSTEM OF STATE REGULATION OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGIONS

DSc, prof. **Kadirov Abdurashid**
Scientific Research Center "Scientific bases and
issues of economic development Uzbekistan" at TSEU

Abstract. The article analyzes the processes of transformation of state regulation of socio-economic development of regions and also examines the issues of expanding the powers of territories when making management decisions.

Keywords: region, social, economic, development, government, regulation, system, transformation, feature, regional policy, strategy.

Kirish.

Globallashuv jarayonlari bilan bog'liq yangi iqtisodiy sharoitlar, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning baynalmilallashuvi, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda, tovar va resurs bozorlarida raqobatni kuchaytirishda tobora muhim rol o'ynaydigan geosiyosatning ta'siri mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy tizimida O'zbekiston hududlarining o'rnini aniqlash muammosini yanada kuchaytirdi. Bugungi kunda bozordagi bo'shliqlarni aniqlash, hududiy iqtisodiyotni ixtisoslashtirish va diversifikatsiya qilishning eng istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash hududlar oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday vazifalar hududlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishning umumiy vektorini belgilab beruvchi dastur va strategik hujjatlarga uyg'un holda amalga oshirilishi kerakligini unutmaslik lozim.

Mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va boshqaruvni markazsizlashtirish sharoitida mintaqaviy omilning roli tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda, chunki islohotlar tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa rivojlanish parametrlari bilan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan respublika, viloyatlar va boshqa ma'muriy tuzilmalar hududlarida amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan islohotlarni amalga oshirish jarayonida zamonaviy sharoitlarga moslashtirilgan va "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan mintaqaviy rivojlanishning yangi vositalarini takomillashtirish va ishlab chiqish talab etiladi (Farmon, 2023).

Shunday qilib, respublikada modernizatsiya va keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish sharoitida mintaqaviy rivojlanishini tartibga solish muammolarini o'rganishni chuqurlashtirish zarurati tug'iladi. Mintaqqa iqtisodiyotini boshqarish tizimi tarkibiy qayta qurish asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashga, texnologik modernizatsiya va aholi farovonligini oshirish asosida ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida asosiy ahamiyatga ega bo'lgan "hududiy iqtisodiy tizim" atamasi odatda, zamonaviy iqtisodiy maktablar va tendensiyalarga muvofiq shakllangan ta'riflar majmui sifatida talqin etiladi. Ushbu atama bo'yicha ba'zi ta'rif va izohlarning qiyosiy tahlilini amalga oshiramiz.

Granberg (2001) hududiy iqtisodiy tizimni "iqtisodiy makon" deb ta'riflagan: "Hududiy iqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri bu hududning dastlabki g'oyasini ishlab chiqadigan iqtisodiy makondir. Iqtisodiy makon - bu ko'plab ob'ektlar va ular o'rtasidagi aloqalarni o'z ichiga olgan to'yingan hudud: aholi punktlari, sanoat korxonalari, iqtisodiy rivojlangan va rekreatsion hududlar, transport va muhandislik tarmoqlari va boshqalar. Har bir hududning o'ziga xos ichki makon va tashqi makon bilan aloqalari mavjud".

Ayupovning (2015 fikriga ko'ra, "...hududiy iqtisodiy tizim - hududlararo mehnat taqsimoti va integratsiya asosida shakllanadigan xalq xo'jaligi majmuasi. Ushbu tizim tuzilmaning murakkabligida tubdan farq qiladi va oddiyroq tuzilmalarga bo'linishi mumkin".

Zelinskaya (2009) hududni tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi va unga "hududiy iqtisodiy tizim - bu iqtisodiy tizimlarning birlashishi va uyg'unlashuvi natijasida shakllanadigan, uning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini boshqarish tizimini yaratadigan, shuningdek integral sub'ektning murakkab shakli bo'lgan mulkiy munosabatlar majmui" deb, ta'rif beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, hududiy iqtisodiyot tuzilmasini o'zgartirish sanoat va texnologik tuzilmalarni o'zgartirish, respublika va hududiy bozorlarda yirik, o'rta, kichik korxonalar egallagan bozor ulushlarini farqlash bilan birga amalga oshiriladi.

Iqtisodiyoni tartibga solish tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqligini 19-asr ohirlarida nazariy va uslubiy jihatdan ko'plab iqtisodchi-olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, M.Fisher, E. Samuelson, M.Veber, U.Mitchell, F.List, V. Marshall, P.Kristaller, F. Perru va boshqalar. Ushbu iqtisodchi-olimlarning ishlarida milliy iqtisodiyot tartibga solishda davlat

tomonidan maqsadli ta'sir ko'rsatishning mohiyatini olib beriladi va asoslanadi (Peppy, 2000).

Perru (2000) ta'kidlaganidek, "...iqtisodiyot tarkibi uning elementlari o'rtasidagi nisbatlar va munosabatlardan yig'indisi sifatida tavsiflanadi". Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rifni hududiy darajada ham qo'llash mumkin.

Hududiy iqtisodiyot tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan vaqt o'lchovida, tarkibiy o'zgarishlarda esa davlatning tarkibiy siyosati va iqtisodiyotning optimal tuzilishiga erishish uchun islohotlar jarayoni (Camagni, 2012).

Zamonaviy talqinda iqtisodiyotning tarkibi (shu jumladan, hududiy darajada) deganda, odatda, "...iqtisodiyot, iqtisodiy ob'ekt yoki iqtisodiy kategoriyaning muayyan belgilarga ko'ra tarkibiy qismlarga bo'linishi, bu tarkibiy qismlar o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishi; iqtisodiy obyektning tarkibi, tuzilishi" (Dragica, 2017).

Borodin hamda Kiselevalarning (2019) ta'riflashlaricha, "hududiy iqtisodiy tizim o'ziga xos resurslarga asoslangan va manfaatdor tomonlar guruhlari o'rtasidagi munosabatlarning murakkab tuzilmasiga ega bo'lgan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik quyi tizimlarning dinamik rivojlanishiga intiladigan xalq xo'jaligi majmuasining bir qismidir. Hududiy iqtisodiy tizimning asosiy vazifalari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy muhitning mahalliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda takror ishlab chiqarishdir".

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Mintaqalar rivojlanishining hududiy jihatlari ularning tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining xilma-xilligi va qarama-qarshiligi bilan alohida ahamiyatga ega. Buni hisobga olish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish sur'atlari va nisbatlarini, mamlakatdagi tarkibiy o'zgarishlarni belgilaydi.

Hududiy iqtisodiyot o'zining moliyaviy asosiga, qo'shimcha resurslar manbalariga, shuningdek, ularni taqsimlash mexanizmiga ega bo'lgan yaxlit tizim sifatida tahlil qilinishi kerak. Hududiy rivojlanishni shakllantiruvchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish, infratuzilmaviy, ilmiy-texnikaviy, malakaviy, eksport, rekreatsion salohiyat va boshqalar.

Hudud bir-biriga bog'langan va bir-biri bilan ma'lum bir tarzda o'zaro ta'sir qiluvchi bir qator kichik tizimlardan tashkil topgan murakkab tizimdir (1-rasm).

Hududiy miqyosda iqtisodiy rivojlanishni boshqarishning muhimligi bozor iqtisodiyotining mavjud kamchiliklari, birinchi navbatda, uning iqtisodiy foya olishga yo'naltirilganligi va ijtimoiy adolat muammolariga e'tibor bermasligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishni hududiy darajada boshqarishning maqsadga muvofiqligi mavjud iqtisodiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va hududiy taqsimoti jarayonida o'ziga xos xususiyatlarning mavjudligi, geografik va demografik xususiyatlar bilan asoslanadi.

Demak, hududning ham tarkibiy elementi, ham milliy xo'jalik tizimining tarkibiy elementi bo'lgan hududiy iqtisodiy tizim murakkab dinamik tuzilishga ega bo'lib, hudud tarkibiy siyosatining ob'ekti hisoblanadi. Bundan tashqari, globallashuv, integratsiya, iqtisodiy munosabatlarni raqamlashtirish jarayonlari jadallahushi va keng miqyosda amaliyatga joriy qilinishi, texnologik tartibning o'zgarishi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagagi tub tarkibiy o'zgarishlarning ob'ektiv asosi hisoblanadi. Bu esa hududiy iqtisodiy tizimning innovatsion rivojlanish shartlariga mos kelishini ta'minlaydi.



1-rasm. Hudud tuzilmasining elementlari (Аюпов, 2015)


Shuningdek, hududiy tizim faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun asos bo'lgan mintaqaviy rivojlanishni tartibga mexanizmlarini takomillashtirish ularning tarkibiy qismidir. Bu o'zgarishlar stixiyali (o'z-o'zidan, ko'r-ko'rona) bo'lmasligi, balki hududning iqtisodiy siyosati hamda strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish doirasida tartibga solinishi kerak.

Iqtisodiy siyosat deganda iqtisodiyot tarmoqlarining xususiy biznes bilan sheriklik asosida rivojlanishida, ma'muriy boshqaruv, tartibga solish va moliyaviy yondashuvlarga asoslangan holda ajratilgan moliyaviy resurslarni nazorat qilish, taqsimlash va qayta taqsimlashda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining bir qismi tushunilishi kerak. Tarkibiy siyosat davlat, viloyat va shahar (tuman) darajasida ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi mumkin.

Hududiy darajadagi iqtisodiyy siyosat davlatning tarkibiy siyosatini, hududiy darajadagi me'yoriy hujjatlarni, shuningdek, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimni rivojlantirishning asosiy maqsadlari va yo'nalishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Boshqa har qanday siyosat kabi, hududiy darajadagi tarkibiy siyosatning ham o'z maqsad va vazifalari, obyekt va subyektlari mavjud (2-rasm).

Bizningcha, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hamda rivojlantirishda tarkibiy siyosat sub'ektlarining an'anaviy tarzda ajratilgan tarkibi barcha manfaatdor tomonlarni hisobga olgan holda kengaytirilishi kerak. Subyektlar tarkibiga fan va ta'lim muassasalari (OTM, ITM va boshq.), kasaba uyushmalari va mahalliy aholini jalg qilish maqsadga muvofiqdir, chunki hududiy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda ularning manfaatlarini hisobga olmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu bilan birga, subyektlarning kengaytirilgan tarkibining o'zaro hamkorligi sheriklik va kelishuv (konsensus) tamoyillariga asoslanishi kerak.



2-rasm. Hududiy rivojlanish transformatsiya siyosatining asosiy elementlari³⁷

Tarmoqlar, hududiy-tarmoq va tarmoqlararo komplekslar hamda korxonalar majmui sifatida hududiy iqtisodiy tizim hudud iqtisodiy siyosatining ob'ekti hisoblanadi. Hudud iqtisodiy siyosati obyektining bunday ko'rinishi tarkibiy o'zgarishlarga tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Shunday qilib, hududiy iqtisodiy tizim barcha sub'ektlarning konsensusini nazarda tutgan holda hududning iqtisodiy siyosati doirasida amalga oshiriladigan tarkibiy o'zgarishlarning murakkab va ko'p qirrali ob'ektidir: hududiy hokimiyat organlari, tadbirkorlik va uning vakillari, fan va ta'lim muassasalari, kasaba uyushmalari va mahalliy aholi.

Globallashuv jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy tizim rivojlanishidagi noaniqliklarning kuchayishi natijasida hududiy iqtisodiyotni tartibga solishsamarali tashkil etish muammosining dolzarbliyi yanada oshib bormoqda. Oldindan aytib bo'lmaydigan, noaniqlik va xavfning yuqori darajasi sharoitida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash masalasi davlat va hududiy darajada katta ahamiyatga ega. Hududlarning nomutanosiblikda rivojlanishini oldini olish mamlakatning hududiy rivojlantirish siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda mamlakatning hududiy rivojlantirish siyosati hududlarni rivojlantirishni rag'batlantiiruvchi optimal mexanizmlarni kompleks tarzda o'z ichiga qamrab oladi. Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish masalalari bo'yicha ko'plab xorij olimlari, xususan, Przygoda (2015), Dragica (2017), Vesa Harmaakorpi (2015), Camagni (2012), Kaldor (1970), Latushko (2017) va boshqa ko'plab olimlar chuqur tadqiqotlar olib borishgan.

Bugungi kunda davlat barqaror iqtisodiy o'sish uchun motivatsiya shakllantirishi yetarli darajada emas deyishimiz mumkin. Sababi soliq yukining va inflyatsiya darajasini nisbatan kattaligi, kredit olish qiyinligicha qolmoqda va bu ishlab chiqarish o'sishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi omillar qatorida aholi o'rtasida mahalliy korxonalar mahsulotlariga talabning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, turmush darajasi yetarli darajada emasligi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatning noaniqligini ham ko'rsatish mumkin.

³⁷ Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Hududiy iqtisodiy tizimning alohida elementlari o'rtasidagi xususiyatlar va munosabatlarga qarab, uning tuzilishini quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin (3-rasm).

Hududiy iqtisodiy tizim tuzilmalarining turlari

Reproduktiv

Tarmoq

Hududiy

ijtimoiy

3-rasm. Hududiy iqtisodiy tizim tuzilmalarining turlari³⁸

Reproduktiv tuzilma ijtimoiy mahsulotning xarajat va funksional mazmuni bo'yicha bo'linishi bo'lib, ishlab chiqarish tizimining tegishli ravishda ikkiga bo'linishini ko'rsatadi. Umuman olganda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi - bu har bir bo'limmaning samaradorligida namoyon bo'ladigan, ichki ishlab chiqarish jarayoni va ushbu birliklarning o'zaro ta'siridan natija ko'rsatadigan haqiqiy takror ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi.

Tarmoq tuzilmasi hududiy iqtisodiyot doirasida sanoat, tarmoqlar yoki iqtisodiy faoliyat turlarini taqsimlanishini nazarda tutadi. Iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi - bu xo'jalik faoliyatining xilma-xilligi va mulkchilik shakllarini hisobga olgan holda ma'lum institutsional qismlarning bo'linishi va ajratilishidir. Iqtisodiyot tuzilmasining asosiy tarkibiy qismi bu takror ishlab chiqarish jarayonida o'xhash funksiyalarni bajaradigan va daromadlar va xarajatlarning o'xhash tuzilishiga ega bo'lgan bir xil turdag'i xo'jalik yurituvchi sub'ektlar majmuasidir[5]. Zamonaviy adabiyotlarda iqtisodiyotning quyidagi to'rtta sektorini ajratish ko'rsatiladi:

ishlab chiqarish sanoati, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, ovchilik va qishloq xo'jaligi; elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti, qayta ishslash sanoati, qurilish ishlab chiqarish; xizmat ko'rsatish sohalari (raqamli texnologiyalar); boshqaruv, fan, dasturlash, axborot va ilmiy xizmatlar.

Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ham milliy, ham hududiy darajadagi iqtisodiyotning tuzilishini tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy ob'ektlarning hududiy taqsimlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik omillar ta'sir ko'rsatadi. Resurslarga hamda bozorlarga hududiy yaqinlik, shuningdek, transport aloqalarini to'g'ri tashkil qilish va aholini ish bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega, chunki bu omillar hududiy rivojlanishni tabaqlanishuviga olib keladi. Iqtisodiyotning ijtimoiy tuzilishi o'zaro munosabatlar asosida birlashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida mehnat faoliyati turlarini ko'rib chiqishimiz mumkin: malakali yoki malakasiz; yosh va jins xususiyatlari bo'yicha: nafaqadorlar, yoshlar va boshqalar; korxonalarining faoliyat ko'lami bo'yicha: yirik, o'rta, kichik. Demak, hududiy iqtisodiy tizim elementlarining turli-tumanligi va murakkabligi tufayli uni tuzilishga bo'lgan yondashuvlarning hech biri iqtisodiyot tuzilmasi haqida yaxlit ko'rinishni bermaydi. Shu bois samarali tarkibiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun barcha yondashuvlardan birgalikda foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlanishini tartibga solishda salbiy oqibatlarning oldini olishga qaratilgan bo'lishi va oldindan belgilangan chora-tadbirlar rejasiga bo'lishi kerak. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi iqtisodiyotning hududiy tuzilishini tahlil qilish va baholash natijalari bilan belgilanadi hamda keyingi strategik o'zgarishlar uchun asos hisoblanadi.

³⁸ Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

1-jadval

Yalpi hududiy mahsulot³⁹

Hududlar	2018				2020				2022			
	Aholi soni, ming kishi	YaHM xajmi, mlrd. so'm	Aholi jon boshiga, ming so'm	Koeffisiyent	Aholi soni, ming kishi	YaHM xajmi, mlrd. so'm	Aholi jon boshiga, ming so'm	Koeffisiyent	Aholi soni, ming kishi	YaHM xajmi, mlrd. so'm	Aholi jon boshiga, ming so'm	Koeffisiyent
O'zbekiston Respublikasi	32 656,7	426 641,0	12 945,7	1,000	33 905,2	605 514,9	17 688,5	1,000	35 271,3	888 341,7	24 919,7	1,000
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 842,3	15 622,6	8 417,4	0,650	1 898,3	21 661,9	11 335,4	0,641	1 948,5	29 925,4	15 249,4	0,612
Andijon viloyati	3 011,7	27 017,7	8 889,4	0,687	3 127,7	38 008,5	12 036,0	0,680	3 253,5	54 464,0	16 564,0	0,665
Buxoro viloyati	1 870,2	21 817,4	11 605,0	0,896	1 923,9	31 334,2	16 189,2	0,915	1 976,8	45 797,3	22 975,6	0,922
Jizzax viloyati	1 325,0	12 715,6	9 498,5	0,734	1 382,1	18 441,7	13 207,6	0,747	1 443,4	27 140,8	18 596,0	0,746
Qashqdaryo viloyati	3 148,4	26 438,9	8 312,3	0,642	3 280,4	35 351,5	10 687,0	0,604	3 408,3	49 520,8	14 372,6	0,577
Navoiy viloyati	958,0	22 573,3	23 240,3	1,795	997,1	49 780,4	49 513,0	2,799	1 033,9	66 685,4	63 832,1	2,562
Namangan viloyati	2 699,6	18 809,6	6 899,6	0,533	2 810,8	27 863,0	9 814,0	0,555	2 931,1	41 098,2	13 864,4	0,556
Samarqand viloyati	3 720,1	32 681,7	8 693,1	0,672	3 877,4	43 023,2	10 996,3	0,622	4 031,3	62 440,3	15 323,2	0,615
Surxondaryo viloyati	2 514,2	18 592,5	7 313,8	0,565	2 629,1	24 625,6	9 275,2	0,524	2 743,2	34 858,5	12 561,6	0,504
Sirdaryo viloyati	815,9	8 532,7	10 369,1	0,801	846,3	12 803,8	14 999,7	0,848	878,6	18 136,8	20 433,5	0,820
Toshkent viloyati	2 861,2	39 989,9	13 885,9	1,073	2 941,9	64 407,6	21 833,1	1,234	2 941,5	93 433,1	31 499,2	1,264
Farg'ona viloyati	3 620,2	27 523,9	7 537,1	0,582	3 752,0	37 216,2	9 830,0	0,556	3 896,4	55 972,1	14 219,1	0,571
Xorazm viloyati	1 805,0	15 900,1	8 734,9	0,675	1 866,5	21 315,4	11 338,6	0,641	1 924,2	31 963,1	16 465,7	0,661
Toshkent shahri	2 464,9	63 509,2	25 532,4	1,972	2 571,7	95 247,8	36 051,4	2,038	2 860,6	147 414,6	50 675,3	2,034

³⁹Mualif tomonidan tuzilgan

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, hudud iqtisodiyotidagi tartibsiz tarkibiy o'zgarishlarni to'liq bartaraf etish hamda strategiya va dasturlar ishlab chiqish doirasida ("O'zbekiston 2030" strategiyasi) jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining joriy tendensiyalarini, jumladan, globallashuv, raqamlashtirish, insonparvarlik va boshqalarni to'liq hisobga olgan holda bozor va ma'muriy o'zgarishlar uchun shart-sharoitlar yaratish hududiy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar berildi:

hududning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan samarali mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, birinchi navbatda, tabiiy resurslar, ishlab chiqarish, inson, moliyaviy salohiyat tufayli mintaqqa iqtisodiyotining imkoniyatlariiga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi hududlarining iqtisodiy salohiyati tahlili shuni ko'rsatdiki, hududni barqaror rivojlantirish uchun shart-sharoitlar mavjud;

mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning faoliyati samaradorligi va rivojlanish barqarorligini oshirish mintaqani boshqarishning institutsional tuzilishini tizimli ravishda o'zgartirishni, shu jumladan mintaqaning barqaror rivojlanishini boshqarish mexanizmlari kompleksini takomillashtirishni ta'minlaydi;

so'nggi paytlarda mintaqaviy tahlilda tizimli yondashuvdan foydalanish kuchaydi, bu hududlarni tizim sifatida o'rghanishda, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy jihatdan ifodalanadi. Bizning fikrimizcha, mintaqalarning hududiy ishlab chiqarish tizimlari g'oyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, pirovard natijada iqtisodiy o'sish mezonini ishlab chiqarishni rivojlantirishdir. Binobarin, hududlarni modernizatsiya qilish transformatsiyalari aynan ularning hududiy ishlab chiqarish tizimlarini yangilash sifatida qaralishi kerak;

mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi - bu resurs imkoniyatlarini, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni va mintaqaga nisbatan tashqi sharoitlarni rivojlantirishning mumkin bo'lgan ssenariylarini tahlil qilishdan kelib chiqadigan umumiylar, vazifalar, mintaqani rivojlantirish yo'nalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydigan hujjat;

hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rghanish natijalari hududiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga mas'ul davlat organ mavjudligi va u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda faol ishtirok etadi hamda mahalliy organlarning mustaqilligi, tashabbuskorligi va manfaatdorligi ta'minlanshda amaliy yordam ko'rsatadi.

Adabiyotlar / Jumepamypa/ Reference:

Camagni R. (2012). *On the concept of territorial competitiveness: sound or misleading?* Conference Report. 42nd Congress of the European Regional Science Association (ERSA). Dortmund Germany, 27-31 August 2012.

Dragica R. Gatarić (2017). *Differences in regional development on the territory of the Republic of Serbia.*

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston – 2030" 11 sentyabr 2023 y., 158 -sonli Farmoni.

Kaldor H. (1970) *The case of regional policies. Scottish Journal of Political Economy, Volume number 17.*

Latushko N.A. (2017). *Evolution of regional policy models in the context of theories of regional economy. Economics: Yesterday, Today and Tomorrow., Vol. 7, Is. 11A.*

Miroslaw Przygoda. (2015) *New Trends in the Regional Development. International Journal of Management Science and Business Administration Volume 1, Issue 11, October, Pages 47 – 54.*

Vesa Harmaakorpi. (2015) *The Concept of the Regional Development Platform and Regional*

Development Platform Method (RDPM) as a Tool or Regional Innovation Policy. 27-31 August. Jyväskylä, Finland.

Аюпов А.Н. (2015) Региональная экономика / А.Н. Аюпов. - Бишкек: Изд-во КРСУ, -120с.

Бородин А.И. (2019) Региональные экономические системы и их устойчивость / А.И.

Бородин, Н.Н. Киселева // Вестник Удмуртского ун-та. – вып.4. — 4с.

Гранберг, А.Г. (2001) Основы региональной экономики: учебник для вузов / А.Г.

Гранберг; Гос. ун-т –Высшая школа экономики. -4-е изд. -М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, -495с.

Зелинская, М.В. (2009) Региональная экономическая система как интегральный субъект эволюционного процесса / М.В. Зелинская // Экономика и управление. - № 10(59). -228с.

Перру, Ф. (2000) Экономика XX века / Ф. Перру. -М.: Экономика, - 326 с.